

## TRANSPORT XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISHINI BAHOLASH

*Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi*  
*Toshkent davlat transport universiteti*  
*MEUVi-4 magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada aholiga transport xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi, va boshqa xizmat ko'rsatish sohalariga nisbatan o'zgarishi tahlil qilingan. Transport xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish jarayonlari trend modellar asosida baholangan, iqtisodiy tahlili hamda prognozi qilingan.

**Kalit so'zlar:** eksponensial trend modeli, funktsional model, empirik model, korrelyatsiya koeffitsienti, regressiya tenglamasi.

### KIRISH

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishdir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida ham bu sohaga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, quyidagi vazifalar belgilangan:

- aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish havfsizligini oshirish va atrof-muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;
- yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yuqoridagilarga asoslanib, mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida joi larda aholiga transport xizmat ko'rsatish uchun, har bir mintaqaning iqlimi, bozor iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olgan holda, ekonometrik modellashtirishdan foydalanishni keng yo'lga qo'yish uchun qator muammolarni hal qilish talab etiladi. Chunonchi:

- hududlar o'rtasida transport xizmat ko'rsatish tarmoqlaridagi tafovutlarni bartaraf qilishni;
- joylarda transport xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni ustuvor tarzda rivojlantirishning modellashtirishni;
- joylarda transport xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasidagi raqobat muhitini

yaxshilashni;

- joylarda ishlab chiqarish fondlari va ishchi kuchlarini hisobga olib transport xizmat ko'rsatish sohasini yanada to'laroq jalb qilishni, ya'ni jamiyatning chegaralangan resurslaridan to'g'ri foidalanishda boshqarishni modellashtirishni.

Viloyatlarda transport xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirib, hududlarda gaz, suv va elektr energiya taqchilligini pasaytirish uchun yangi texnologiya, yangi uslublardan foydalanish kerak. Mamlakatimiz olimlarining ko'pchiligi transport xizmat ko'rsatishning tarmoqlar tarkibini aniqlashda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatishgan:

Birinchi, transport xizmat ko'rsatishning eng asosiy belgisi aholini umumiy sharoitlar bilan ta'minlashdir. Umumiy sharoitlar bir tomondan, moddiy ishlab chiqarishning bevosita jarayonini ta'minlovchi, boshqa tarafdin, insonning har kunlik hayotini ta'minlashi mumkin. Bunda ishlab chiqarish jarayonida va mehnatning umumiy taqsimoti tizimida paydo bo'luvchi, insonning hayot faoliyatida va ishlab chiqarishning umumiy sharoitlar yig'indisidan iborat bo'lgan xizmat ko'rsatishga ta'rif berish mumkin;

Ikkinchi, transport xizmat ko'rsatishda hech qanday yangi moddiy mahsulot yaratilmaydi, balki mavjud bo'lgan xizmat turlari uchun sarflangan xarajatlar tushuniladi;

Uchinchi, transport xizmat ko'rsatish barcha sohalar bilan bevosita bog'liq. Transport xizmat ko'rsatishning vazifasi barcha ishlab chiqarish va iste'molchilarga zarur bo'lgan umumiy sharoitlarni ta'minlashdan iborat;

To'rtinchi, transport xizmat ko'rsatish natijasida iste'molning foydali samarasi bilan transport ishlab chiqarish jarayoni mos keladi. Demak, xizmat ko'rsatishning asosiy tarmoqlaridan bo'lgan transport sohasining xususiyati shundan iboratki, u mahsulotning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishida asosiy omil hisoblanadi. Mahsulotning xarakati, uni saqlash, yetkazish infratuzilma tarmoqlarining ishlab chiqarish jarayoni hisoblanib, asosiy ishlab chiqarish jarayoni bilan to'g'ri keladi. Shu bilan birga, asosiy ishlab chiqarish jarayonida mahsulot iste'molchiga yetkazilgandagina iste'molga tayyor bo'lishi mumkin;

Beshinchi, transport xizmat ko'rsatish sohasi tovar va mahsulotlarni tashish va saqlash jarayonlari shaklida namoyon bo'ladi, mahsulotlarning harakatga kelishini ta'minlaydi;

Oltinchi, transport xizmat ko'rsatish sohasining shakllanishi va rivojlanishi yirik birlamchi kapital qo'yilmalarni talab etadi. Shundan infratuzilma obyektlari fond sig'imi ko'rsatkichlarining yuqoriligi kelib chiqadi;

Yettinchidan, transport xizmat ko'rsatish samaradorligini faqat boshqa sohalar misolida aniqlash mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, xizmat ko'rsatish samaradorligi asosan ishlab chiqarish tarmoqlarida namoyon bo'ladi. Binobarin, xizmat ko'rsatish faoliyatining samarasi uzoq vaqtdan so'ng seziladi.

Ijtimoiy va xizmatlar sohasi tarmoqlari rivojlanishining zamonaviy davrida xizmatlar ko'rsatish ommaviy tus olmoqda. Shundai ekan, erishilgan natija birligiga qilingan mehnat samaradorligi asosiy fondlar, moddiy va moliyaviy sarf-xarajatlarni hisoblab chiqishga imkoniyatlar bo'lishi talab etiladi.

Viloyatlarda transport xizmat ko'rsatish sohasining bozor munosabatlari va raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyatini boshqarishni shunday tashkil etish kerakki, u tarmoqlarning ichki va tashqi muhitiga ta'sir qilishi shart. Buning uchun xizmat ko'rsatishning yangi tashkiliy ekonometrik modellarini yaratish lozim bo'ladi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqilgan. Undan kutilgan asosiy maqsad mamlakat aholisi turmush darajasini yuksaltirish uchun iqtisodiyotning barqaror va muttasil rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Mazkur strategiya asosida O'zbekiston iqtisodiyoti uzoq muddatli istiqbolli rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari va variantlari bir necha holatda ko'rib chiqildi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Aholiga transport xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish muammosi xizmat ko'rsatish tarmoqlari tizimini rivojlantirishning an'anaviy va innovatsion choralari birgalikda olib borilishi bilan hal qilinishi mumkin. An'anaviy choralar aholining transport xizmat turlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va xizmat ko'rsatish tarmog'ining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratiladi.

Aholiga transport xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning zamonaviy shakl va usullari asosini ekonometrik modellashtirishni takomillashtirish tashkil qiladi. Ilg'or tajribani o'rganish, transport xizmat ko'rsatish standartlarini joriy qilish, transport xizmat ko'rsatish sifati va madaniyatini oshirishni takomillashtirish usullari rivojlanishini modellashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Yuqoridagi taklif va tavsiyalarning tatbiq etilishi viloyatda aholiga transport xizmat ko'rsatish darajalarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016–2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 89-modda, 27-son, 326-modda; 2017 y., 15-son, 257-modda, 33-son, 863-modda.

2. Raximov A.N. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida): iqt. fan. fal. dok. diss. –

T.: TDIU, 2020. –165 b.

3. Pardaev M.Q., Musaev H.N. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari –T.: Iqtisod-moliya, 2018.

4. Xovard K., Eriashvili N.D., Solovyov B.A. Marketing. Erkin bozor tizimida marketing tamoyillari va texnologiyasi: universitetlar uchun darslik / ed., Qayta ko'rib chiqilgan. Va qo'shimcha. -M.: UNITI-DANA, 2011, -623 b.

5. Pavlenko V.F. Hududiy rivojlanishni rejalashtirish (rejalashtirishning hududiy jihati). –M.: Iqtisodiyot, 2014. B.267.

6. Рашидов, Д. (2022). НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАР ЖАМИЯТЛАРИ ТАСАРРУФИДАГИ КОРХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.

7. Ekonometrika: darslik. / Ed. I.I. Eliseeva. -M.: Moliya va statistika, 2013. B.344.